

TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISHDA ELEKTRON DASTURLARNING AHAMIYATI

Rayimkulov Akmal Akbaraliyevich

Sirdaryo pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim sifatini nazorat qilishda samarali elektron dasturlar to'g'risida atroflicha ma'lumotlar berib o'tiladi. Ta'lim sifatini nazorat qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish natijasida jarayonlarni soddalashtirish, vaqtdan unumli foydalanish, ma'lumotlarni shaffof va to'g'ri tahlil qilish, xulosalar chiqarish va boshqa ko'nikmalarni shakllantirishdagi tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiya, monitoring, sun'iy intellekt, elektron pochta, integratsiya, innovatsiya, elektron ta'lim platformalari, multimedia resurslari.

Bugungi kunda ta'lim sifatini doimiy nazorat qilib borish ta'lim sifatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunning 42-moddasida ta'lim tizimidagi monitoring ta'limning holatini, ta'lim natijalarining o'zgarishi sur'atlarini, ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish va kuzatishni, shuningdek ta'lim oluvchilarning kontingenti to'g'risidagi ma'lumotlarni va boshqaruv qarorlari qabul qilinishini tahlil etishni belgilab qo'yilgan. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 25-maydagi PF-76 son farmoniga muvofiq "Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi" tashkil etilganligi bejiz emas. Zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanib borayotgan raqamli texnologiyalar ta'lim tizimida ham muhim jihatlarini egallab kelmoqda. Ta'lim sifatini nazorat qilishning eng dolzarb usullaridan biri - elektron dasturlar yordamida olib boriladigan monitoring bo'lib, aynan elektron dasturlar ta'lim sifatini baholash va nazorat qilish samaradorligini oshiradi. Elektron dasturlar - bu ma'lumotlarni raqamli formatda saqlash, uzatish va qayta ishlashga asoslangan texnologiyalardir. Bu texnologiyalar komyuterlar, mobil telefonlar, internet, sun'iy intellekt, elektron pochta va boshqa tizimlar orqali hayotimizga kirib kelgan.

Ta'lim sifatini nazorat qilishning elektron tizimlari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- diagnostik - ta'lim jarayonini takomillashtirish maqsadida ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish;
- nazorat qiluvchi - ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalari haqida ma'lumot olish;
- analitik - kelgusida ta'lim jarayonini tuzatish uchun statistik ma'lumotlarni tahlil qilish;
- monitoring jarayonida ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda ishlash.

Ta'lim natijalari sifatini nazorat qilishda elektron tizimlardan foydalanish asosan inson omilini kamaytirish yoki ummuman yo'qotishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Jumladan, nazorat ishlari yoki shunga o'xshash imtihonlarning onlayn test dasturlarida o'tkazilishi natijalarni tez muddatda olish va qayta ishlash imkonini

beradi. Buning uchun testlar bankini sifatli tayyorlash lozim bo'ladi. Tizim test savollarini murakkablik darajasiga qarab taqsimlaydi. Bunday qulay tizimdan davlat imtihonlarida foydalaniladi. Shuningdek ta'lim tizimining barcha sohalarida ham qo'llash imkoniyati mavjud. O'zbekistonda barcha ta'lim muassasalarida internet tarmog'ining mavjudligi bu imkoniyatni yanada oshiradi.

Elektron dasturlar yordamida quyidagi vazifalarni ham tez va qulay tarzda bajarish mumkin:

- statistik ma'lumotlarni avtomatik yig'ish;
- tegishli bo'limlar va sohalar kesimida ma'lumotlarni nazorat qilish;
- ma'lumotlarni tahlil qilish maqsadida hisobotlarni avtomatik shakllantirish;
- ma'lumotlar asosida grafiklar tuzish.

Ta'lim sifatini nazorat qilishning muhim ko'rinishlaridan biri sifatida dars mashg'ulotlarini tahlil qilishni aytishimiz mumkin. An'anaviy tahlilda darsni tahlil qiluvchi ma'lumotlarini qog'ozga to'ldiradi. Ta'lim muassasasida amalga oshirilgan dars tahlillarini umumlashtirish, statistikasini chiqarish uchun barcha qog'ozdagi ma'lumotlarni yig'ib chiqishga to'g'ri keladi. Agar **Google Forms** platformasidan foydalanilsa qog'ozga hojat qolmaydi. Ta'lim muassasasida amalga oshirilgan barcha tahlillar yagona jadvalda jamlanadi, statistik ma'lumotlar diagrammalar ko'rinishida ham shakllanadi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Raqamli texnologiyaning asosiy afzalliklariga yana quyidagilarni ham keltirish mumkin:

Ma'lumotlar uzatish va saqlash samaradorligi va ma'lumotlar yuqori tezlikda uzatiladi va katta hajmda saqlanishi mumkin.

Tashish va almashish osonligi sababli raqamli ma'lumotlarni internet orqali tez va samarali ravishda almashish mumkin. Oson integratsiya xususiyati raqamli texnologiyalarni turli tizimlar va qurilmalarga integratsiya qilish imkonini kengaytiradi.

Innovatsiya va rivojlanish imkoniyatlari: Raqamli texnologiyalar yangi imkoniyatlar va xizmatlar yaratishga yordam beradi, masalan, onlayn ta'lim, masofaviy ish, va boshqalar. Umuman olganda, raqamli texnologiyalar bugungi kunda jamiyatning turli jabhalarida, jumladan, ish, ta'lim, tibbiyot, sanoat va kommunikatsiya sohalarida katta o'rin tutadi.

Ta'lim sifatini nazorat qilishda elektron platformalar va ilovalardan foydalanilganda ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik masalalari ham mavjud. Raqamli platformalar orqali ishlashda ma'lumotlar xavfsizligi muhim masaladir. Ko'plab onlayn platformalar va ilovalar ta'lim muassasalari xodimlari haqida shaxsiy ma'lumotlarni yig'adi. Bu ma'lumotlar qanday ishlatilishi va kim tomonidan saqlanishi haqida ma'muriyat va xodimlarni ogoh bo'lishga undaydi. Ba'zi ta'lim ilovalari ta'lim oluvchilar haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni yig'adi, bu esa maxfiylik masalasini yuzaga keltiradi. Albatta, ta'lim muassasalari bu masalani ehtiyotkorlik bilan nazorat qilishlari kerak.

Afsuski, axborot tizimlari bozori ta'lim sifatini nazorat qilishning elektron tizimlari sohasida hali mukammal emas. Ta'lim muassasalarida qo'shimcha dasturlar doirasida olib boriladigan ta'lim sifati tahlili yetarli darajada rivojlanmagan. Qayta ishlash jarayonida olingan statistik ma'lumotlar har doim ham

sifatli tahlil qilinmaydi. Shu sababli, ta'lim sifatini monitoring qilishning elektron tizimlarini tahlil qilish va rivojlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun (2020 yil 23-sentyabr).
2. Oripov J., To'xtayev O. Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarb jihatlari va ahamiyati. —"Science and innovation" elektron jurnali. № 6, avgust, 2022 yil. [308-312].
3. Uralov, A. B. (2018). COMPREHENSIVE AND EXTENDED FORMS OF SUFFIXES IN UZBEK LANGUAGE. *Theoretical & Applied Science*, (12), 127-131.
4. Begnarovich, U. A. (2025). NOMUTANOSIBLIKNING DIAXRON VA SINXRON TAHLILI. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(3), 16-22.
5. URALOV, A. (2026). ALISHER NAVOIY IJODIDA GRAMMATIK MORFEMALARNING DIAXRON TARAQQIYOTI. «ACTA NUUZ», 1(1.3), 338-340.
6. Begnarovich, U. A. (2022). Language Development and Changes in the Composition of Morphemic Units. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(6).
7. Agranovich A., Poletayev A., Fateeva A. Rossiya ta'limi xalqaro ko'rsatkichlar kontekstida: 2018. Taqqoslama hisobot. – Moskva: Logos, 2018.
8. <http://mediakom.uz/front/show/2>